



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



O'ZBEKISTONDA FOND BOZORI: YOSHLAR UCHUN IMKONIYATLAR VA XAVFLAR

Doniyorov Og'abek Ilhom o'g'li

ФОНДОВЫЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ВОЗМОЖНОСТИ И РИСКИ ДЛЯ МОЛОДЁЖИ

Дониёров Огабек Илхом угли

UZBEKISTAN'S STOCK MARKET: OPPORTUNITIES AND RISKS FOR YOUTH

Doniyorov Ogabek Ilhom ogli

Received: June 1, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistondagi fond bozorining hozirgi holati, rivojlanish tendentsiyalari va uning yosh avlod uchun taqdim etadigan moliyaviy imkoniyatlari hamda potentsial xavf-xatarlari keng ko'lamda tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston fond birjasi (UZSE) faoliyati, davlatning qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan islohotlari va yosh investorlarning bozorga kirishidagi to'siqlar ko'rib chiqiladi. Maqolada xorijiy tajribalardan foydalangan holda yoshlarni moliyaviy savodxonlikka undash, investitsiya madaniyatini shakllantirish va fond bozoridagi xavflarni boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston fond bozori yoshlar uchun katta istiqbolga ega bo'lib, biroq tegishli bilim va strategik yondashuvsiz moliyaviy yo'qotish xavfi ham mavjud.

Kalit so'zlar: fond bozori, Yosh investorlar, Moliyaviy savodxonlik, Investitsiya imkoniyatlari, Qimmatli qog'ozlar, Moliyaviy xavflar, Bozor xavfi, UZSE, Kapital bozori, Iqtisodiy islohotlar, Portfel diversifikatsiyasi.

Аннотация: в данной статье проводится широкий анализ текущего состояния фондового рынка Узбекистана, тенденций его развития, а также финансовых возможностей и потенциальных рисков, которые он представляет для молодого поколения. В исследовании рассматриваются деятельность Узбекской фондовой биржи (UZSE), реформы государства, направленные на развитие рынка ценных бумаг, и барьеры, с которыми сталкиваются молодые инвесторы при выходе на рынок. На основе зарубежного опыта в статье разработаны практические рекомендации по повышению финансовой грамотности молодёжи, формированию инвестиционной культуры и управлению рисками на фондовом рынке. Полученные результаты свидетельствуют о том, что фондовый рынок Узбекистана обладает большим потенциалом для молодёжи, однако без соответствующих знаний и стратегического подхода существует реальная угроза финансовых потерь.

Ключевые слова: Фондовый рынок, Молодые инвесторы, Финансовая грамотность, Инвестиционные возможности, Ценные бумаги, Финансовые риски, Рыночный риск, UZSE, Рынок капитала, Экономические реформы, Диверсификация портфеля.

Abstract: this article provides a comprehensive analysis of the current state of Uzbekistan's stock market, its development trends, and the financial opportunities and potential risks it presents for the younger generation. The study examines the activities of the Uzbekistan Stock Exchange (UZSE), the state's reforms aimed at developing the securities market, and the barriers young investors face when entering the market. Drawing on international experience, the article develops practical recommendations for promoting financial literacy among youth, fostering an investment culture, and managing risks in the stock market. The findings indicate that Uzbekistan's stock market holds great promise for young people; however, without adequate knowledge and a strategic approach, the risk of financial loss remains significant.

Keywords: stock market, Young investors, Financial literacy, Investment opportunities, Securities, Financial risks, Market risk, UZSE, Capital market, Economic reforms, Portfolio diversification.

■ KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida moliyaviy savodxonlik va investitsiya

madaniyati har bir fuqaro, xususan yosh avlod uchun muhim ko'nikmalarga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi



fonida fond bozorlari iqtisodiy faollikning asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. O'zbekiston ham ushbu global tendentsiyalardan chetda qolmay, kapital bozorini rivojlantirish yo'lida izchil qadamlar tashlayotgan davlatlar qatoriga kirdi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida qimmatli qog'ozlar bozorini modernizatsiya qilish va xususiy lashtirish jarayonlarini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'zbekiston fond birjasi (UZSE)³³ faoliyatini takomillashtirish, xorijiy investorlarni jalb qilish va ichki investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasida bozor ishtirokchilarining soni yildan yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yosh investorlarning fond bozoriga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshganligi kuzatilmoqda.

Biroq, imkoniyatlar bilan bir qatorda xavf-xatarlar ham mavjud. Moliyaviy savodxonlikning yetarli darajada emasligi, bozor mexanizmlarini tushunmaslik va strategik yondashuvning yo'qligi yosh investorlar uchun jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan bozorlarda yangi investorlarning katta qismi dastlabki investitsiya tajribasida zararga uchraydi, bu esa ko'pincha bilim va tayyorgarlikning yetishmasidan kelib chiqadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda yosh investorlar uchun mo'ljallangan maxsus moliyaviy ta'lim dasturlari va amaliy qo'llanmalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayni paytda, demografik jihatdan yosh aholining ulushi yuqori bo'lgan O'zbekistonda ushbu masalaning ilmiy va amaliy jihatdan o'rganilishi katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni fond bozoriga jalb qilish nafaqat ularning shaxsiy moliyaviy farovonligini oshiradi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shadi.

Maqolaning maqsadi O'zbekiston fond bozorining hozirgi holatini tahlil qilish, yosh investorlar uchun mavjud imkoniyatlar va xavf-xatarlarni aniqlash hamda xorijiy tajribalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: O'zbekiston fond bozorining rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish; Yosh investorlar oldida turgan asosiy to'siq va muammolarni aniqlash; Xorijiy mamlakatlarning moliyaviy savodxonlik tajribalarini tahlil qilish; Portfel diversifikatsiyasi va xavflarni boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va statistik usullardan foydalanilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Kapital bozori rivojlanish agentligi va UZSE ma'lumotlari asosiy manbalar sifatida xizmat qilgan [1]. Maqolaning natijalari yosh investorlar, moliyaviy ta'lim mutaxassislari va davlat siyosatini ishlab chiquvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston fond bozorini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar so'nggi yillarda sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Sobirov A., To'laganov D. va Nurmatov Sh. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining fond bozoriga chiqish tajribasi tahlil qilingan³⁴ bo'lib, solishtirma va statistik metodlardan foydalanilgan. Tadqiqotda kapital bozorini rivojlantirish, korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilgan choralar ko'rib chiqilgan.[2]

Karimov A. o'z tadqiqotida kapital bozorida investorlarning faolligini oshirishda fond indekslarining o'rnini o'rgangan va bu borada amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan³⁵. Nusratullayev B. esa O'zbekiston aholisining daromadlarini oshirishda fond bozorining o'rnini tahlil qilgan[3]. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, fond bozoriga investitsiyalar jismoniy shaxslar uchun daromad oqimlarini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli boylik yaratish va inflyatsiyadan himoya qilish uchun ishonchli yo'l bo'lib xizmat qiladi.

Biroq nazariy yutuqlar bilan bir qatorda amaliy muammolar ham mavjud. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, erkin muomaladagi aksiyalarning umumiy qiymatini 45 trillion so'mga — ya'ni yalpi ichki mahsulotning taxminan 5 foiziga — yetkazish maqsad qilib qo'yilgan edi. ³⁶Shu bilan birga bozorda bir qancha to'siqlar saqlanib qoldi: birja fondlari, ipoteka va islomiy qimmatli qog'ozlar singari yangi vositalar joriy etilmagan, kraudfanding tizimi esa hali shakllanmagan edi. Tadqiqotchilarning fikricha, davlat va kapital bozori professional hamjamiyati o'rtaidagi zaif muloqol hamda jahon bozorlaridagi noqulay sharoitlar bozor rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [4].

Ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. 2023-yilda Toshkent va Samarqandda fond bozoriga investitsiya kiritishga bag'ishlangan keng ko'lamlı forumlar o'tkazildi hamda sarmoyaviy maslahatchilar respublikaning 30 dan ortiq oliy o'quv yurtlarida ma'ruzalar o'qidi.³⁷ Bundan tashqari, Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan "individual investitsiya hisobi" tushunchasi rasman joriy etildi va bu chakana investorlar, xususan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi [5]. Shunday qilib, mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston fond bozori ilmiy jihatdan o'rganilayotgan bo'lsa-da, yosh investorlar uchun mo'ljallangan maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks yondashuv qo'llanilgan bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi to'rtta tahlil usulidan foydalanilgan:

Birinchidan, qiyosiy tahlil usuli qo'llanilgan. O'zbekiston fond bozorining rivojlanish darajasi Janubiy Koreya, Hindiston, Qozog'iston va Malayziya kabi mamlakatlar tajribalari bilan solishtirilgan. Ushbu tahlil

³³ <https://uzse.uz>

³⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-ishtirokidagi-aksiyadorlik-jamiyatlarining-fond-bozoridagi-ishtirok-etishining-nazariy-asoslari>

³⁵ <https://www.grafiat.com/en/literature-selections/fond-bozori/journal/>

³⁶ <https://uz.kursiv.media/uz/2023-09-21/ozbekiston-fond-bozori-yetti-yil-ichida-20-barobar-oshirish-rejalashtirilgan/>

³⁷ <https://daryo.uz/2024/02/01/ozbekiston-fond-bozori-freedom-broker-davlat-dasturini-amalga-oshirishda-va-qimmatli-qogozlarga-sarmoya-qilishda-qanday-yordam-berishi-haqida>



natijasida O'zbekiston sharoitiga mos moliyaviy savodxonlik modellari va investitsiya madaniyatini shakllantirish mexanizmlari aniqlangan.

Ikkinchidan, statistik tahlil usuli qo'llanilgan. O'zbekiston fond birjasi (UZSE) ma'lumotlari asosida savdo hajmlari va bozor ishtirokchilarining soni dinamikasi o'rganilgan, bozor rivojlanishining kelajakdagi tendentsiyalari prognozlangan hamda xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi miqdoriy jihatdan baholangan [6].

Uchinchidan, SWOT-tahlil usuli qo'llanilgan. Yosh investorlar nuqtai nazaridan fond bozorining kuchli tomonlari (Strengths), zaif tomonlari (Weaknesses), imkoniyatlari (Opportunities) va tahdidlari (Threats) tizimli ravishda belgilangan. Ushbu tahlil strategik tavsiyalar ishlab chiqishning metodologik asosi bo'lib xizmat qilgan.

To'rtinchidan, risklarni baholash usuli qo'llanilgan. Fond bozoriga xos bozor xavfi, likvidlik xavfi, tartibga solish xavfi va axborot xavfi xalqaro

standartlar asosida sifatli ko'p mezonli tahlil (qualitative multi-criteria analysis) metodi yordamida o'rganilgan va ularning yosh investorlarga ta'sir darajasi baholangan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston fond bozori so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. "Xalq IPO" dasturi doirasida fond bozoriga 40 ta korxonaning chiqishi rejalashtirilgan bo'lib, bu ham mahalliy biznes, ham chakana investorlar, hamda mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Brokerlik kompaniyalarida ochilgan hisoblar soni 12 mingdan oshgan, mijozlar tomonidan tuzilgan bitimlar hajmi esa 2023-yilda 24 foizga o'sib, 171 milliard so'mga yetgan³⁸. O'zbekiston iqtisodiy va fuqarolik liberallashtirish siyosatini amalga oshirib, yosh va yuqori malakali aholi yordamida rivojlanib bormoqda. London fond birjasi, Osiyo taraqqiyot banki, Franklin Templeton kabi nufuzli xalqaro institutlar mamlakatga qiziqish bildirmoqda³⁹.

1-jadval.

Yosh investorlar uchun imkoniyatlar va xavf-xatarlar tahlili

Imkoniyat / Xavf turi	Tavsif	Yoshlar uchun ahamiyati / Ta'sir darajasi
I. YOSH INVESTORLAR UCHUN IMKONIYATLAR		
"Xalq IPO" dasturi	Davlat korxonalari aksiyalari qulay narxda taklif etiladi; 40 ta korxona bozorga chiqishi rejalashtirilgan.	Past kapital bilan real investitsiya boshlash imkoniyati.
Individual investitsiya hisobi (IIH)	Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirish bilan rasman joriy etilgan; soliq imtiyozlari beradi.	Daromaddan ortiqcha soliq to'lamaslik, kapital tejash.
Raqamli kirish imkoniyati	Mobil ilovalar va onlayn brokerlik platformalari orqali bozorga ulanish.	Minimal vaqt va xarajat bilan investitsiya boshlash.
Xalqaro investorlar qiziqishi	LSE, ADB, Franklin Templeton kabi institutlar O'zbekistonga e'tibor qaratmoqda.	Bozor o'sishi va likvidlikning oshishi kutilmoqda.
Savdo hajmi o'sishi	2023-yilda bitimlar hajmi 24% o'sib, 171 milliard so'mga yetdi; hisoblar soni 12 000+.	Faol bozor muhiti, ko'proq imkoniyatlar.
II. YOSH INVESTORLAR UCHUN XAVF-XATARLAR		
Bozor xavfi	Narxlar o'zgaruvchanligi, makroiqtisodiy beqarorlik, kompaniya moliyaviy holati.	Yuqori — tajribasiz investorlar zararlanadi.
Likvidlik xavfi	Ayrim aksiyalar bo'yicha yetarli xaridor/sotuvchi topilmasligi.	O'rta — mablag'ni tezda chiqarib olish qiyinlashadi.
Axborot xavfi	Noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilish.	Yuqori — moliyaviy savodxonlik past bo'lsa risk oshadi.
Tartibga solish xavfi	Qonunchilik o'zgarishlari, yangi cheklovlar yoki soliq siyosati o'zgarishi.	O'rta — bozor institutlari hali shakllanmoqda.
Tayyorgarlikning yetishmasligi	Maxsus ta'lim dasturlari va amaliy qo'llanmalarining kamligi.	Yuqori — yangi investorlarning zararga uchrashuvi ehtimoli katta.

Xalqaro tajribaga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun zarur investitsiyalarni jalb qilishning muhim manbai bo'lib, bank krediti orqali moliyalashtirishning muqobili sanaladi[7]. Bozorda yuridik yoki jismoniy shaxslar o'z

mablag'ini kelgusida foyda olish maqsadida aksiya hamda boshqa qimmatli qog'ozlarga yo'naltiradi, daromad esa dividend yoki foiz ko'rinishida yoxud ikkilamchi bozorda yuqori bahoga sotish evaziga olinadi.⁴⁰ Shunday qilib, yosh investorlar uchun quyidagi

³⁸ <https://daryo.uz/2024/02/01/ozbekiston-fond-bozori-freedom-broker-davlat-dasturini-amalga-oshirishda-va-qimmatli-qogozlarga-sarmoya-qilishda-qanday-yordam-berishi-haqida>

³⁹ <https://invest.gov.uz/uz/>

⁴⁰ <https://www.spot.uz/oz/2018/08/08/stock/>



asosiy imkoniyatlar aniqlandi: "Xalq IPO" dasturi orqali davlat kompaniyalarining aksiyalarini qulay narxda sotib olish; individual investitsiya hisobi (IIH) orqali soliq imtiyozlaridan foydalanish; raqamli texnologiyalar va mobil ilovalar orqali bozorga oson kirish imkoniyati.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot O'zbekiston fond bozorining yosh investorlar uchun taqdim etadigan imkoniyatlari va xavf-xatarlarini har tomonlama tahlil etdi. Quydagi asosiy xulosalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, O'zbekiston fond bozori sezilarli o'sish sur'atlarini namoyish etmoqda. 2023-yilda bitimlar hajmining 24 foizga oshishi va brokerlik hisoblarining 12 mingdan ziyod bo'lishi bozorga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi. "Xalq IPO" dasturi doirasida 40 ta davlat korxonasining fond bozoriga chiqishi rejalashtirilgan bo'lib, bu yosh investorlar uchun real va qulay investitsiya imkoniyatlari yaratadi.

Ikkinchidan, individual investitsiya hisobi (IIH) institutining joriy etilishi va soliq imtiyozlari yoshlarni uzoq muddatli investitsiyaga undaydigan muhim mexanizm sifatida baholanadi. Raqamli texnologiyalar va mobil ilovalarning rivojlanishi esa bozorga kirishni yanada osonlashtirmoqda.

Uchinchidan, xavf-xatarlarni boshqarish masalasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bozor xavfi, likvidlik xavfi, axborot xavfi va tartibga solish xavfi yosh investorlar uchun jiddiy to'siqlar bo'lib qonmoqda. Tadqiqot ko'rsatishicha, moliyaviy savodxonlikning yetarli darajada emasligi yangi investorlarning zararga uchrashining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, xorijiy tajribalar — Janubiy Koreya, Hindiston, Qozog'iston va Malayziya modellari — shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy ta'lim dasturlari va investitsiya madaniyatini shakllantirish siyosati fond bozori ishtirokchilarining sonini va savodxonligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. O'zbekiston ham ushbu tajribalardan samarali foydalanishi lozim.[8]

Beshinchidan, portfel diversifikatsiyasi va xavflarni boshqarish strategiyalari yosh investorlar uchun zaruriy ko'nikma hisoblanadi. Faqat bitta aktiv turiga sarmoya kiritish o'rniga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar o'rtasida muvozanat saqlash moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston fond bozori yosh avlod uchun katta istiqbolga ega bo'lib, davlat islohotlari, xalqaro hamkorlik va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi bu imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda [9]. Biroq tegishli bilim, strategik yondashuv va puxta tayyorgarlikliksiz moliyaviy yo'qotish xavfi ham real bo'lib

qoladi. Shu sababli yoshlarni fond bozoriga jalb etish bilan birga ularning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan kompleks davlat dasturlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston fond birjasi rasmiy sayti. — URL: <https://uzse.uz> (murojaat sanasi: 2024-yil 15-noyabr).

2. Sobirov A., To'laqonov D., Nurmatov Sh. Davlat ishtirokidagi korxonalarning fond bozoriga chiqish tajribasi // Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali. — 2024. — №6. — B. 12–20.

3. Nusratullayev B. Fond bozoriga investitsiyalar orqali aholining daromadlarini diversifikatsiya qilish // Qo'qon universiteti xabarnomasi. — 2024. — №2. — B. 67–75.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va xalqaro tadqiqotlar instituti (SHTI) tahliliy maqolalaridan yoki "Iqtisodiy sharh" (Review.uz) jurnalining O'zbekiston kapital bozori tahliliga bag'ishlangan materiallari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-iyundagi "Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5613-sonli Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti. — URL: <https://mf.uz> (murojaat sanasi: 2024-yil 15-noyabr).

7. O'zbekistonga investitsiyalar: fond bozori va xalqaro hamkorlik // invest.gov.uz. — URL: <https://invest.gov.uz> (murojaat sanasi: 2024-yil 15-noyabr).

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-apreldagi "Kapital bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2344-sonli Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-janvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Doniyorov Og'abek Ilhom o'g'li Buxoro davlat universiteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabasi / Дониёров Огабек Илхом угли Бухарский государственный университет Студент направления «Финансы и финансовые технологии» / Doniyorov Ogabek Ilhom ogli Bukhara State University Student of Finance and Financial Technologies



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz